

VI. TRANSPORT VA ALOQA

Mustaqillik yillarida transport va kommunikatsiya tizimini strategik rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda yaratilgan samarali transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omilidir.

Yuk tashish. 2022- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transporti tomonidan 7,8 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, o'sish sura'ti 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 102,8 % ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasi avtomobil transporti turlari tomonidan 196,2 mln. t-km.ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,3 % ni tashkil qildi.

Avtomobil transportida yuk tashish va yuk aylanmasi

(2022- yilning yanvar-mart holatiga)

	<i>2022- yil yanvar-mart</i>	<i>2021- yilning yanvar-martiga nisbatan % hisobida</i>
Tashilgan yuk, mln. tn	7,8	102,8
Yuk aylanmasi, mln. t-km	196,2	110,3

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportida yuk aylanmasining o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 101,7 % ni tashkil etdi va 101,7 mln. t-km. ga yetdi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 58,8 % ni tashkil etdi (2021- yilning yanvar-mart oylarida 63,9 %).


Andijon viloyatining shahar va tumanlari kesimida tashilgan yuk bo'yicha yetakchi o'rinni Andijon shahri (2 895,4 ming tonna) egallaydi. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkichlar Asaka tumani (538,3 ming tonna) va Andijon tumani (499,0 ming tonna) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida yuk tashish, ming tonna
(2022- yilning yanvar-mart holatiga)

	<i>Jami tashilgan yuk ming tonna</i>	<i>2021- yilning yanvar-martiga nisbatan % hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
Viloyat bo'yicha:	7 697,9	102,8	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	2 895,4	103,9	37,6
Xonobod	320,4	101,9	4,2
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	499,0	102,5	6,5
Asaka	538,3	102,7	7,0
Baliqchi	396,5	101,8	5,2
Bo'ston	151,7	101,3	2,0
Buloqboshi	190,9	102,0	2,5
Jalalquduq	321,0	102,1	4,2
Izboskan	313,1	102,0	4,1
Qo'rg'ontepa	421,9	102,5	5,5
Marhamat	228,5	101,7	3,0
Oltinko'l	328,4	102,0	4,3
Paxtaobod	359,7	102,2	4,7
Ulug'nor	151,4	101,1	2,0
Xo'jaobod	236,7	102,0	3,1
Shahrixon	345,0	102,4	4,5

Ko'rsatilgan yuk tashishda yuqori bo'lmagan ko'rsatkichlar Bo'ston tumani (151,7 ming tonna), Marhamat tumani (228,5 ming tonna) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Tashilgan yukning umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da
(2022- yil yanvar-mart)



Hududlar bo'yicha tashilgan yukning yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Andijon (37,6 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (7,0 %) va Andijon (6,5 %) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatning yuk aylanmasi hajmida yetakchi o'rinni Andijon shahri (85 504,2 ming tonna-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko'rsatkich Asaka (14 787,9 ming tonna-km), Andijon (12 804,7ming tonna-km) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida yuk aylanmasi, ming tonna-km
(2022- yilning yanvar-mart holatiga)

	<i>ming tonna-km</i>	<i>2021- yilning yanvar-martiga nisbatan % hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
Viloyat bo'yicha:	196 230,3	110,3	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	85 504,2	112,0	43,6
Xonobod	6 918,8	108,0	3,5
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	12 804,7	110,7	6,5
Asaka	14 787,9	110,8	7,5
Baliqchi	5 707,0	106,9	2,9
Bo'ston	3 641,4	107,7	1,9
Buloqboshi	5 728,3	107,3	2,9
Jalaquduq	7 150,5	108,6	3,6
Izboskan	5 431,1	109,0	2,8
Qo'rg'ontepa	6 838,8	109,8	3,5
Marhamat	6 918,8	108,0	3,5
Oltinko'l	7 377,6	109,1	3,8
Paxtaobod	8 873,5	108,4	4,5
Ulug'nor	4 350,8	106,3	2,2
Xo'jaobod	5 583,9	108,2	2,8
Shahrixon	8 613,0	110,0	4,4

Ko'rsatilgan yuk aylanmasidagi yuqori bo'lmagan quyidagi Bo'ston (3 641,4 ming tonna-km) va Ulug'nor (4 350,8 ming tonna-km) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Tashilgan yuk aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da
(2022- yil yanvar-mart)



Hududlar bo'yicha tashilgan yuk aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Andijon (112,0 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (110,8 %) va Andijon (110,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholiga, shu jumladan, iqtisodiyotning barcha sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilarga, o'quv muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi va talabalarga yuqori sifatli transport xizmatini ko'rsatish, avtomobil transporti oldida turgan eng muhim masaladir. Bugungi kunda hech bir fuqaro harakatini (bir manzildan boshqa bir manzilga borishni) transportsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yo'lovchi tashish. 2022- yilning yanvar-mart oylarida avtomobil transportining barcha turlari tomonidan 158,3 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,6 % ni tashkil etdi. Yo'lovchi tashish aylanmasining ushbu davrda o'sish sur'ati 107,9 % ga yetib 3 012,0 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

Avtomobil transport yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	<i>2022- yil yanvar-mart</i>	<i>2021- yilning yanvar-martiga nisbatan % hisobida</i>
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi	158,8	101,6
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	3 012,0	107,9

Jami avtomobil transportidagi yo'lovchi aylanmasi 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 107,9 % ga yetdi va 3 012,0 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

Viloyatning tuman, shaharlari bo'yicha tashilgan yo'lovchi bo'yicha yetakchi o'rinni Andijon (63 441,1 ming kishi) shahri egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkichlar Asaka (17 246,5 ming kishi), Andijon (9 497,7 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida yo‘lovchi tashish, ming kishi
(2022- yil yanvar-mart holatiga)

	<i>ming kishi</i>	<i>2021- yilning yanvar-martiga nisbatan % hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
Viloyat bo‘yicha:	158 336,7	101,6	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	63 441,1	103,0	40,1
Xonobod	4 247,4	99,7	2,7
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	9 497,7	101,6	6,0
Asaka	17 246,5	102,4	10,9
Baliqchi	5 720,0	100,0	3,6
Bo‘ston	2 407,4	99,1	1,5
Buloqboshi	3 301,0	100,0	2,1
Jalaquduq	6 381,5	100,1	4,0
Izboskan	6 480,9	100,2	4,1
Qo‘rg‘ontepa	8 197,7	100,3	5,2
Marhamat	5 199,0	100,1	3,3
Oltinko‘l	5 309,0	100,5	3,4
Paxtaobod	6 019,5	100,4	3,8
Ulug‘nor	2 675,1	99,0	1,7
Xo‘jaobod	5 841,7	100,4	3,7
Shahrixon	6 371,2	101,0	4,0

Ko‘rsatilgan yo‘lovchi tashishda nisbatan uncha yuqori bo‘lmagan ko‘rsatkichlar, Bo‘ston (2 407,4 ming kishi) va Ulug‘nor (2 675,1 ming kishi) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Tashilgan yo'lovchining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da
(2022- yil yanvar-mart)



Shahar va tumanlar kesimida tashilgan yo'lovchining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Andijon (40,1 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (10,9 %) va Andijon (6,0 %) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatning yo'lovchi aylanmasi hajmida yetakchi o'rinni Andijon shahri (1 202,7 mln.yo'lovchi-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko'rsatkich Asaka (322,9 mln. yo'lovchi-km) va Andijon (181,2 mln. yo'lovchi-km) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida yo‘lovchi aylanmasi, mln. yo‘lovchi-km
(2022- yil yanvar-mart holatiga)

	<i>mln. yo‘lovchi-km</i>	<i>2021- yilning yanvar-martiga nisbatan % hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
Viloyat bo‘yicha:	3 012,0	107,9	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	1 202,7	109,4	39,9
Xonobod	81,4	106,1	2,7
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	181,2	108,0	6,0
Asaka	323,0	108,2	10,7
Baliqchi	108,4	106,3	3,6
Bo‘ston	45,4	105,5	1,5
Buloqboshi	63,6	105,8	2,1
Jalaquduq	122,8	106,5	4,1
Izboskan	122,9	106,6	4,1
Qo‘rg‘ontepa	157,8	107,1	5,2
Marhamat	97,1	106,2	3,2
Oltinko‘l	99,6	106,9	3,3
Paxtaobod	114,0	106,4	3,8
Ulug‘nor	81,3	104,9	2,7
Xo‘jaobod	96,6	106,8	3,2
Shahrixon	114,1	107,2	3,8

Ko‘rsatilgan yo‘lovchi aylanmasidagi uncha yuqori bo‘lmagan yo‘lovchi-km Bo‘ston (45,4 mln. yo‘lovchi-km) va Buloqboshi (63,6 mln. yo‘lovchi-km) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida
hududlarning ulushi, % da**
(2022- yil yanvar-mart)



Shahar va tumanlar kesimida yo‘lovchi aylanmasining yuqori ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Andijon (39,9 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (10,7 %) va Andijon (6,0 %) tumanlarida kuzatildi.

**Avtomobil transportida yuk tashish, yuk aylanmasi,
yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi**
(2022- yil yanvar-mart oylarida)

